

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Monopol korxonalar daromadlari hisobini takomillashtirish

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna, Baybutayeva Farangiz Farxod qizi

Совершенствование учёта доходов на монопольных предприятиях

Эргашева Насиба Рахматуллаевна, Байбутаева Фарангиз Фарход кизи

Improvement of income accounting in monopoly enterprises

Ergasheva Nasiba Rakhmatullaevna, Baybutaeva Farangiz Farkhod kizi

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada monopol korxonalar daromadlari hisobini takomillashtirish orqali mahsulot tan-narxini pasaytirish va sifatini yaxshilash, monopol korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarini shakl-lantirish to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini kengaytirish, monopol korxonalarning raqobat bozorida xatti-harakatining nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirish, ular tomonidan ko'rsa-tilayotgan faoliyatdan olinadigan daromadlarning shakllanish tartibini, unga ta'sir etuvchi omillarning tavsifini yoritib berish, daromadlarning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqqan holda omillar hisobi, monopol korxonalar hisob siyosati hamda hisobotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** monopol korxona, korxona daromadi, korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati, monopol korxonalar hisob siyosati.
- **Аннотация:** В статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по снижению себестоимости продукции и повышению ее качества за счет совершенствования учета доходов предприятий-монополистов, расширения теоретико-методологических основ обеспечения прозрачности информации о формировании финансовых результатов финансово-хозяйственной деятельности предприятий-монополистов, разработки теоретико-методологических основ поведения предприятий-монополистов на конкурентном рынке, уточнения порядка формирования доходов от осуществляемой ими деятельности, описания факторов, на него влияющих, совершенствования учета факторов на основе структурной структуры доходов, учетной политики и отчетности предприятий-монополистов.
- **Ключевые слова:** предприятие-монополист, прибыль предприятия, финансово-хозяйственная деятельность предприятий, учетная политика предприятий-монополистов.
- **Abstract:** This article presents scientifically based proposals and recommendations on improving the accounting of income of monopoly enterprises, reducing the cost of products and improving their quality, expanding the theoretical and methodological foundations of ensuring the transparency of information on the formation of financial results of financial and economic activities of monopoly enterprises, developing the theoretical and methodological founda-tions of the behavior of monopoly enterprises in a competitive market, clarifying the procedure for the formation of

income from the activities performed by them, describing the factors affecting it, and improving the accounting of factors based on the structural structure of income, accounting policies and reporting of monopoly enterprises.

- **Keywords:** monopoly enterprise, income of the enterprise, financial and economic activities of enterprises, accounting policies of monopoly enterprises.

KIRISH

Xalqaro integratsiyaning kuchayishi natijasida davlatlar o'rtasida xalqaro tovar ayirboshlash doirasining kengayib borishi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda amaldagi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarib, jumladan, monopol korxonalar daromadlari hisobini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Monopol korxonalarning raqobat bozoridagi xatti-harakatining nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan faoliyatdan olinadigan daromadlarning shakllanish tartibini, unga ta'sir etuvchi omillarning tavsifini yoritib berish, daromadlarning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqqan holda omillar hisobi, monopol korxonalar hisob siyosati hamda hisobotini takomillashtirish bu boradagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash,

raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda milliy iqtisodiyotning erkinligini oshirish, undagi raqobat muhitini kuchaytirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida "milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"[1] asosiy vazifalardan biri qilib belgilab berilgan. Albatta, bunday o'zgarishlar monopol korxonalarda daromadni tan olish va uning hisobini tashkil etishning an'anaviy tartibiga ta'sir etib, daromad va xarajatlar hisobini mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotga mos ravishda takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 18-martdagi PQ-5031-son "Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 14-dekabrda PQ-4921-son "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 26-fevraldagi PQ-

4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi 114-son "Monopoliyaga qarshi kompleks tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 14-dekabrda 1013-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 30-martdagi 249-son "Tovar bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda daromad va xarajatlar hisobini takomillashtirish borasida ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar A.P.Abramov[2], V.I.Angeleyko[3], Ye.A.Fedorov[4] kabilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan N.B.Abdusalomova[5], K.B.Axmedjonov[6], A.Z.Avloqulov[7], M.Q.Pardaev[8], S.Qodirxonov[9] kabi olimlarning ilmiy asarlarida daromad va xarajatlarni boshqarish hamda hisobini takomillashtirish masalalarining uslubiy va amaliy jihatlarini o'z aksini topgan. Yuqoridagi olimlarning asarlarida temir yo'l transporti faoliyatini nazariy va amaliy o'rganish jarayonida korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning ko'plab masalalariga alohida e'tibor berilmagani, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, hali bu sohada daromadlar hisobini milliy va xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda ko'rsatilgan xizmatlar tannaxsini pasaytirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Ba'zi iqtisodchi olimlar monopoliyaning salbiy tomonlarini qayd etsalar,

ba'zilar ijobiy tomonlarini ko'rsatib o'tadilar. Masalan, respublikamizning yetuk iqtisodchi olimi, professor N.Jumayevning fikricha, monopol kompaniyalarni "parchalab", aktivlarini bozorga olib chiqishimiz kerak. Chunki, monopol korxona taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga intilmaydi, xodimlarning professionalligini oshirishga mablag' kiritmaydi[10].

I.A.Kimning fikricha, "Monopoliya-ko'pincha korxonalar iqtisodiyot holati va bozordagi holatni hisobga olgan holda amalga oshiradigan majburiy choradir"[11].

I.Yu.Tarasovning ta'kidlashicha, "Monopolist – odatda, yirik biznesning bir vakili hisoblanadi, asosiy soliq to'lovchi va yangi ish o'rinlari yaratuvchisidir. Monopoliyalar davlat byudjetini to'ldirish va muhim ijtimoiy muammoni – aholi bandligini ta'minlashga yordam beradi"[12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Monopol korxonalar daromadlari hisobini asoslab berish, monopol korxonalar daromadlari hisobidan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashning uslubiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan masalalar, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, surovnomma va iqtisodiy tahlilash va tizimli tahlil bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qo'mita tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reestrining birinchi ilovasida keltirilgan ro'yxatga asosan 126ta xo'jalik yurituvchi subyekt monopol korxona hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan monopol korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017-yilga nisbatan 2024-yilda 18,8 foizga oshgan. Shu yerda o'rinli bir savol tug'ilishi mumkin ya'ni, bu ijobiy natijami yoki salbiy? Bunga ikki tomondan qarash mumkin. Birinchisi, mahsulot dinamikasi yoki hajmi. Bu holatda tahlil qilinayotgan-yillarda monopol korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borgan. Ikkinchi tomondan esa, raqobat bozorida monopol korxonalarning mavqei ortib borgan. Albatta, bular ijobiy ko'rsatkich.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, monopol korxonalar mamalakat iqtisodiyotida o'z o'rnini va mavqeiga ega. Maqsadimiz iqtisodiyotimizda monopolizatsiyani rivojlantirish emas,

balki ularda tashkil etilgan buxgalteriya hisobi, jumladan, daromadlar hisobini takomillashtirishdir.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, monopol korxonalarning o'ziga ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- davlat byudjetini to'ldirishda yuqori salmoqqa egaligi;
- aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni yuqoriligi;
- monopol korxonalar tomonidan bozordagi baholarning mo'tadil saqlab turilishi natijasida inflyasiyaning oldi olinadi;
- monopol korxonalarda yuqori zamonaviy rivojlangan texnologiyalarni olib kirishga etarli kapital mavjudligi;
- monopol korxonalar tomonidan respublikamizga olib kiritilgan zamonaviy rivojlangan texnologiyalardan foydalanish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish hamda sifat darajasini oshirish imkoniyatlarining yuqoriligi.

Demak, monopol korxonalar nafaqat salbiy, balki ko'plab ijobiy xislatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Yuqorida keltirilgan monopol korxonalarning ijobiy jihatlardan kelib chiqib, ularda daromadlarning shakllanishining quyidagi o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- raqobatli bozorda monopol korxonalar tomonidan baholar boshqarilishi natijasida daromadning aniqlik darajasi yuqori;
 - monopol korxonalarda kapitallarning umumlashuvi ularning aktivlarini kengayishi va daromadlari oshishiga olib keladi;
 - monopol korxonalarda daromadlar taqsimlanishi yagona boshqaruv qarorlari orqali amalga oshiriladi.
- Umuman, moliyaviy natijani aniqlash uchun daromad (tushum) bilan xarajat taqqoslanadi, bunda daromad xarajadan katta bo'lsa, farq summasi foyda, agar daromad xarajadan kichik bo'lsa, farq summasi zarar bo'ladi.
- Mahsulot sotish muomalalari bo'yicha moliyaviy natijani aniqlashda, sotilgan mahsulotlardan tushgan tushum (mahsulotni sotish bahosidagi qiymati) sotilgan mahsulot tannarxi bilan taqqoslanadi.



1-rasm. Korxonaning daromadiga ta'sir etuvchi ichki omillar


Tushum katta bo'lsa, farq summasi foyda, kichik bo'lsa, farq summasi zarar bo'ladi. Daromadga ta'sir qiluvchi turli-tuman omillar mavjud bo'lib, ularni o'rganish korxonalarning moliyaviy natijasini yaxshilash va mustahkamlash yo'llarini topishda amaliy yordam bo'ladi.

Shuni hisobga olib, korxonaning daromadiga ta'sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratiladi.

Boshqa omillar qatoriga raqobatning mavjudligi, soliq yukining yuqoriligi, tashqi iqtisodiy aloqalar, ichki xo'jalik aloqalari,

mahsulotga talab, debitorlar bankrotligini kiritish mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan omillar xo'jalik yuritishning iqtisodiy shart-sharoitlarini belgilash bilan birga, ko'p darajada monopol korxonalar faoliyati samaradorligini ham belgilab beradi. Shunday qilib, monopol korxonalarning moliyaviy natijasiga juda katta sondagi turli-tuman tashqi omillar ta'sir qiladi, ularning kelib chiqishi ham turli xil tabiatga ega. Ularning ta'siri bevosita va bilvosita bo'ladi.



2-rasm. Daromadga ta'sir etuvchi tashqi omillar

Ishlab chiqarish omillarining ta'siri xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati – ishlab chiqarishga bog'liq. Ular ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlarida, ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi va raqobatbardoshligida, iste'molchilar tomonidan unga talabning mavjudligida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish tusidagi omillar guruhi quyidagi asosiy elementlarni o'z

ichiga oladi: aktivlar tarkibi, texnik natijasi, jismoniy va ma'naviy eskirishi, ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish, ishlab chiqarish (ta'minot va sotuvlar) siklining davomiyligi, mahsulotni ishlab chiqarish davriyligi, uning tannarxi, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari darajasi, tarkibi va tuzilmasi, ishlab chiqarish zaxiralari hajmi va tarkibi hamda ularning aylanuvchanligi, o'rtacha mehnat unumdorligi, xodimlar malakasi va hokazo.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayoni iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunday bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalarda faoliyat moliyaviy natijalarini aniqlashda yagona an'anaviy usuldan foydalaniladi: daromad – xarajatlar foyda (yoki zarar).

Lekin "daromad" ko'rsatkich bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ijobiy xulosa berib bo'lmaydi. Daromadga nisbatan xarajatning salmog'i oshib ketishi salbiy natija hisoblanadi. Ya'ni daromad bilan foyda ko'rsatkichlarini bir-biridan ajrata bilish maqsadga muvofiq. Bundan kelib chiqib, daromadga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Daromad xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining natijasida aktivlarni ko'payishi bilan majburiyatlarni kamayishi bo'lib, u aktivlarning sotilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi davrida namoyon bo'ladi hamda faoliyatining hisobot davri uchun moliyaviy natijalar va soliq bazasini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi".

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib xulosa qilish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z xo'jalik faoliyatini samaradorligini aniqlash va kelgusi davrga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hisobot davrida daromad va xarajatlarni hisoblash asosida moliyaviy natijalarni aniqlash imkoniyatini beruvchi axborotlarni yig'ish va ishlab chiqish tizimiga ega bo'lishi kerak.

Monopol korxonalarda ham moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar hisobi "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar" nomli 2-son BHMS, "Lizing hisobi" nomli 6-son BHMS, "Moliyaviy investitsiyalar hisobi" nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Har bir faoliyatning natijasi bo'lganidek, korxona faoliyatining natijasi ham mavjud bo'ladi va bu uning foyda va zararlarini aks ettiradi. Agarda bu holatga ilmiy tomondan baho berilsa, bu uning yakuniy moliyaviy natijasidir.

Yakuniy moliyaviy natija buxgalteriya hisobida 9900 "Yakuniy moliyaviy natija" schyotida hisobga olib boriladi. Bu schyot tranzit bo'lib, aktiv-passiv schyot xarakteriga ega. Schyotning debetida zararlar, kreditida esa foyda aks ettiriladi. Ushbu schyotning debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning

hisobot-yilidagi moliyaviy natijasini, ya'ni soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasini aks ettiradi. Hisobot-yilining oxirida 9810□"Daromad (foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar", 9820□"Boshqa soliq va yig'imlar bo'yicha xarajatlar" schyotlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi.

Odatda, dividendlar hisobot-yili yakunlari bo'yicha hisoblanadi. Biroq monopol korxonalari har chorakda va yarim-yilda bir marta, agar bu jamiyat ustavida ta'qiqlanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli yillik dividendlarni to'lash sanasi monopol korxonalari ustavida yoki aksiyadorlar yig'ilishi qarori bilan belgilanadi.

8710□"Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotida korxona faoliyatining butun hisobot-yilidagi taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobga olib boriladi.

8720□"Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" schyotida korxonaning butun faoliyati davomidagi zarar, dividendlar bo'yicha to'lovlar hamda ustav kapitaliga qayta investitsiyalangan foydani chegirgan holda sof foyda summasini ifodalovchi jamlangan foyda hisobga olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda jahon buxgalteriya hisobi tizimidagi asosiy muammolardan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan o'z-o'zini moliyalashtirishni tashkil etishda oqilona usullardan foydalanish hisoblanadi. Bunday muammo hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu sohada turli xil yondashuvlar mavjudligi ham bejizga emas. Bu borada ko'plab nazariy, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmasin, fan-texnika taraqqiyoti natijasida muammoning o'rganilmagan yangi qirralari yuzaga kelmoqda. Ular orasida respublikamiz iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini to'g'ri aniqlash, ortiqcha soliqlardan himoyalashning asosiy manbalaridan biri bo'lgan xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishda muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda ba'zi muammolar ham mavjud.

Muallifning fikricha, korxona umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlashda biz tomondan taklif etilgan 9060□"Kechiktirilgan daromadlar" va shuningdek, "Buxgalteriya hisobining milliy standartining 21-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"nomli standartda keltirilgan 3100□"Kelgusi davr xarajatlari" schyoti ma'lumotlari o'z aksini topishi kerak.

Mahalliy va xalqaro buxgalteriya hisobining afzalliklari

bo'yicha uslub va usullardan foydalangan holda islohotlarni amalga oshirish bilan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o'tish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu, bir tomondan, rejalashtirish, tartibga solish, moliyaviy tahlil va nazorat qilishning axborot ta'minotida muvaffaqiyatli ishtirok etish va ma'muriy faoliyatning tezkor moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Yangi taraqqiyot tizimining ma'nosi, asosan, mamlakat tomonidan belgilangan va ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarga mavjud muammolarni hal etishda mustaqil erkin hisob siyosatini yuritish bilan belgilanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna-Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD) / Эргашева Насиба Рохматуллаевна – доцент Каршинского государственного технического университета, (PhD) / Ergasheva Nasiba Rakhmatullaevna – Associate Professor of Karshi State Technical University, (PhD)**

► nasibaergasheva1988@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-6479-6709>

2. **Baybutayeva Farangiz Farhod qizi- Qarshi davlat texnika universiteti talabasi / Байбутаева Фарангиз Фарход кызы – студентка Каршинского государственного технического университета / Baibutaeva Farangiz Farhod kyzy – student of Karshi State Technical University**

► boybutayevaf@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0006-5021-181X>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. Xalq so'zi. 2022-y. 1-fevral
- [2]. Абрамов А.П. Затраты железных дорог и цена перевозки. – М.: Транспорт, 1974, 256 с.
- [3]. Ангелейко В.И. Железнодорожный путь и станции промышленных предприятий / В.И. Ангелейко. – Москва:Гостехиздат, 2012. - 302 с.;
- [4]. Федоров Е.А. Управленческий учет напредприятиях железнодорожного транспорта. Учебное пособие для вузов железнодорожного транспорта.М.: ГОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2008. -230с.
- [5].Abdusalomova N. "Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubi-yotini takomillashtirish". (DSc)

- darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T., 2019 й.
- [6]. Ахмеджанов К.Б.. Современное состояние службы внутреннего аудита: проблемы и пути их решения. <https://tsue.scienceweb.uz>.
- [7]. Авлоқулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: Шарқ, 2004 й. - 592 б.
- [8]. Пардаев М.Қ. «Иқтисодий таҳлил назарияси» Самарқанд. 2001 й.
- [9]. Қодирхонов С. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: Меҳнат, 2000 й.
- [10]. <https://review.uz/oz/post/>
- [11].] <https://finansy.ru>
- [12]. <https://zakonguru.com>.